

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

AL-XORAZMIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

«Tarix» fakulteti
301-tarix guruhi talabasi
Husainova Azizaning
«Manbashunoslik»
fanidan yozgan

РЕФЕРАТ

**MAVZU: O'RTA OSIYONING XI-XIV ASRLAR IJTIMOIIY
IQTISODIIY HAYOTINI O'RGANISHDAGI ASOSIIY
MANBALAR .**

Topshirdi:
Ilmiy rahbar:

Husainova A.
Matyaqubova M.

Urganch - 2010



MAVZU: O`RTA OSIYONING XI-XIV ASRLAR IJTIMOIY IQTISODIY HAYOTINI O`RGANISHDAGI ASOSIY MANBALAR .

REJA :

I . Kirish .

II. Asosiy qism .

1 . I X-XII asrlarda yashagan Madoiniy, Balazuriy ,Ibn al Faqix, Al-Ya'qubiy ,Ibn Xurdodbeh asarlarini O`rta Osiyo tarixini o`rganishdagi o`rni va ahamiyati .

2. Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir at-Tabariyning «Tarix ar-rusul va-l-muluk» asari qimmatli manba sifatida.

3 . Abu Rayxon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarida O`rta Osiyo tarixi haqida .

III. Xulosa

Kirish

Muhtaram Prezidentimiz I .A . Karimov takidlab o'tganlaridek , o'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi .¹Tarix odatda manbada aks etadi . Imoratni mustahkam poydevorsiz qurib bo'lmaganidek , tarixni manbasiz yoritib bo'lmaydi . Manba uzoq o'tmishdan qolgan , insoniyatning tabiat va jamiyatning ma'lum taraqqiyot bosqichidagi kechmishini o'zida aks ettirgan , moddiy va ma'naviy yodgorliklarni tushunamiz . Demak , manba tarixning tilsiz guvohi . Mustamlakachilik davrining millatchilik va ulug' davlatchilik siyosati , ayovsiz va behisob talon tarojlar , qatag'onlar turli madaniy inqiloblarga qaramay , tarihiy manbalarimizning bir qismi bizning zamonimizgacha etib kelgan . O'rta Osiyo jumladan , O'zbekiston tarixini o'rganish bo'yicha manbalar turli-tuman ular ko'p tillarda , qadimgi Eron , Xorazm , so'g'd , turk , yunon , lotin, xitoy , arab , fors ,mo'g'il va boshqa tillarda yozilgan . Jumladan , O'rta Osiyo tarixi bo'yicha yozilgan ilk manba "Avesto " qadimgi pahlaviy tilida , Qultegin bitigi , Bilga xoqon bitigi , Ongin bitigi qadimgi turk tilida , Sima Siyanning "Tarixiy estasliklari" da Xitoy tilida , O'rta Osiyoda yashagan 21 halq va elatning nomi keltirilgan "Xalqlar ro'yhati" asarlari so'g'd tilida bitilgan .

Tarixdan bizga ma'lumki , arablar VIII asrda O'rta Osiyoda hukronlikni o'z qo'liga oladi bu bilan O'rta Osiyo xalqlari hayotida o'z madaniyatlarini keng yoydilar . Aynan o'sha davrdagi tarixiy voqealar arab manbalari orqali hozirgacha etib kelgan . Manbalarda IX- XII asr tarixini aks etishida o'sha davrda yashagan tarixchilarning hizmati katta , bular qatoriga Madoiniy , Al-Yaqubiy , Balazuriy , Abu Yusuf , Ibn al Faqix , Ibn Xurdodbek , Tabariylarni kiritishimiz mumkin . Ular asarlari orqali nafaqat O'rta Osiyo , balki O'zbekiston tarixi , hamda arablar qo'l ostidagi mamlakatlarning aholisi , ularning

¹ Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: 1998 y. 5 bet.

mashg'uloti urf-odatlarini to'g'risidagi ma'lumotlarni olamiz . Masalan , IX asrda yashab o'tgan yirik geograf va tarixshunos Al-Yaqubiyning "Kitob al buldon " (Mamlakatlar haqida kitob) asari da Eron , Mavorounnahr , Xuroson Seiston , Janubiy - G'arbiy Arabiston , Vizantiya , Suriya , Misr kabi mamlakatlarning geografik holati va ularda mavjuyd bo'lgan , yirik shahar va qalalari , aholisi haqida ma'lumotlar keltirilari . Bunday qimmatli va daliliy ma'lumotlarni Tabariy asarlarida ham uchratamiz . "Tarix ar -rusul va - l -mulk " (Payg'ambarlar va podsholar tarihi) asarida olamning yaratilishidan to 912-913 yillargacha bo'lgan voqealar yilma -yil xronologik tartibda bayon etilgan . Ular haqida batafsilroq ma'lumotni asosiy qismda ko'rsatib o'tamiz .

1. IX asrda yashagan , yirik arab tarixchilaridan biri Madoiniydir.U O'rta Osiyo va O'zbekistonning VII-VIII asr boshlaridagi ijtimoiy – siyosiy tarixiga oid 200 dan ortiq asar yozib qoldirgan olim.Jumladan uning qalamiga mansub, «Axbor ul-xulafo»(Xalifalar haqida xabarlar»), «Kitob al-mag'oziy»(Urushlar haqida kitob»), «Kitob futuh ash-SHom» («SHomning bosib olinishi haqida kitob»), «Tarix al-buldon» («Mamlakatlar tarixi»), «Axbor ash-shuaro («SHoirlar haqida kitob»), «Nasr ibn Sayyor haqida kitob» ana shu asarlar jumlasidandir. Bulardan «Kitob al-ma-g'oziy» va Xuroson hokimlari Asad ibn Abdulloh hamda Nasr ibn Sayyorga bag'ishlangan kitoblari Eron, Afg'oniston, O'rta Osiyo va O'zbekistonning arablar istilosi va VIII asrning birinchi yarmidagi siyosiy tarixi bo'yicha muhim manbalardan hisoblanadi².

Afsuski, al-Madoiniyning mazkur asarlari bizgacha etib kelmagan, lekin ayrim parchalari Balazuriy va Tabariy asarlarida saqlanib qolgan.Al-YA'kubiy IX asrda o'tgan yirik geograf va tarixshunos olim. To'la ismi: Abulabbos Ahmad ibn Abu Ya'kub ibn Ja'far ibn Vahb ibn Vadih al-Kotib al-Abbosiyy. Yirik

² **Bo'riboy Ahmedov** O'zbekiston tarixi manbalari. T.: 2001 y.

mansabdor xonadoniga mansub. Ajdodlaridan biri Vadih ibn Vahb Abbosiylardan al-Mansur (754-775-y) davrida Armanistonda so`ngra Misrda hokim bo`lgan, bobosi va otasi esa soxib baridlik ya`ni xalifani viloyatlarning ahvolidan xabardor qilib turuvchi oliy mansabdor lavozimida turishgan.

Ya`qubiy Bag`dodda tug`ildi, lekin umrining ko`p qismini Armaniston , Xuroson, Falastin, Misr va Mag`ribda o`tkazdi . Uni ham bobosi va otasi kabi ana shu mamlakatlarda sohib baridlik yoki mahalliy hokim mahkamasida biron yirik lavozimda turgan deb taxmin qilish mumkin.

Al-YA`kubiyning ikki yirik va muhim asari bizning zamonimizgacha etib kelgan. Bularning biri «Kitob al-buldon» ya`ni « Mamlakatlar haqida kitob» ikkinchisi esa «Tarix» nomi bilan mashhurdir.³

«Kitob al-buldon» taxminan 891 yilda yozilgan . Bu asar to`rt qismdan iborat:

- 1) Eron, Movarounnahr, Afg`oniston Xuroson va Sejiston (Seiston) hukmdorlari;
- 2) G`arbiy Mesopotamiya va Janubi-G`arbiy Arabiston;
- 3) Janubiy va SHarqiy Mesopotamiya, SHarqiy Arabiston, Hindiston va Xitoy;
- 4) Vizantiya, Suriya, Misr, Nubiya, SHimoliy Afrika hukmdorlari tarixi.

Asarda arablar qo`l ostidagi mamlakatlarning geografik holati; yirik shahar va qal`alari; aholisi va uning mashg`uloti, urf-odati; o`sha mamlakatlardan olinadigan hirojning umumiy miqdori haqida qimmatli ma`lumotlar keltiriladi.

Mazkur asarning ikki nusxa qo`lyozmasi Germaniyadagi kutubxonalarda saqlanmoqda.Uning arabcha matni Gollandiyalik mashhur sharqshunos M. de Gue (1836—1909 ) tomonidan 1892 yili Leydenda chop etilgan. YA`qubiyning ikkinchi yirik asari «Tarix »dir. Asar umumiy tarix tipida yozilgan bo`lib, SHarq mamlakatlari, shuningdek O`rta Osiyo va O`zbekistonning VII—IX asrlardagi tarixi bo`yicha muhim manbalardan biri hisoblanadi. Asar ikki qismdan:

³ Ўзбекистон Мииллий энциклопедияси. —жилд, -Т.,200 . —бет.

1) Odam Atodan to Islom joriy etilguncha bo'lgan tarix.

2) musulmon mamlakatlari tarixidan iborat bo'lib, o'sha mamlakatlarda 873 yilgacha sodir bo'lgan voqealar bayon etilgan. «Tarix»ning arabcha matni 1883 yili gollandiyalik sharqshunos olim M. T. Xautsma (1851-1943 y) tomonidan chop etilgan.

3. IX asrda o'tgan yirik geograf va tarixshunos olim; yuqorida nomi aytilgan Madoiniyning shogirdi Balazuriydir. Uning to'la ismi, Abubakr Ahmad ibn Yahyo ibn Jobir al-Balazuriy.

Asli eronlik bo'lgan, hayotiga oid ma'lumotlar juda kam. Abbosiylardan ad-Mutavakkil va al-Musta'in saroyida tarbiyachi bo'lib xizmat qilgan. U mashhur adabiyotshunos va shoir Abulabbos ibn al-Mo'tazzga ustozlik qilgan. Al-Balazuriy 892 yili vafot etgan. U yozib koldirgan ikki yirik asari O'rta Osiyo tarixini urganishda muxim manba bo'lib xizmat qiladi. Bular «Kitob futuh al-buddon» ya'ni «Mamlakatlarning zabt etilishi haqida kitob» hamda «Kitob ansob ash-sharaf» («SHarofatli kishilarning nasablari haqida kitob») asarlarining muallifidir. Bulardan biz uchun eng qimmatlisi «Kitob futuh al-bul-don» bo'lib, arab istilolari tarixi bo'yicha eng yaxshi asarlardan hisoblanadi.⁴ Faqat shu asardagina arablarning xalifa Usmon (644—656 yy.) va uning Xurosondagi noibi Abdulloh ibn Amr davrida Movarounnahrda bir necha bor bostirib kirganliklari va Maymurg'ni talab qaytganliklari haqida ma'lumot bor. Bundan tashqari, asarda arablar asoratiga tushib qolgan mamlakatlar, ularning diqqatga sazovor shaharlari va osori atiqalari; xalqi, pul muomalasi, undiriladigan soliqlar, shuningdek, arab tilining joriy qilinishi haqida o'ta qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz.

«Kitob al-buldon»ning to'la nusxasi saqlanmagan; uning qisqartirilgan tahriri etib kelgan, xolos. Arabcha matni yuqorida tilga olingan de Gue tarafidan 1866 yili Leydenda chop etilgan. Uning inglizcha tarjimasi bor. Bu asar tarjimonlar Xitti va Murgottenlar tomondan tarjima qilingan.

Arab tilida ijod qilgan yana bir tarixchi Ibn al-Faqihdir. Uning «Kitob axbor ul-buldon» ya'ni «Mamlakatlar haqida

⁴ **Bo'riboy Ahmedov** O'zbekiston tarixi manbalari. T.: 2001 y.

xabarlar» asari bilan mashhur boʻlgan bu olimning hayotiga oid maʼlumotlar juda kam. Haqiqiy ismi sharifi: Abubakr Ahmad ibn Muhammad al-Hamadoniydir. Mazkur asar taxminan 903 yili yozilgan. U asarda maʼlum boʻlishicha xalifalardan al – Mutadit va al-Muqtafiylar bilan zamondosh boʻlgan. Ibn an-Nadimning soʻzlariga qaraganda, ibn al-Faqih oʻz zamonining atoqli adiblaridan biri boʻlib, naql-rivoyat va adabiyotni yaxshi bilgan. I. YU. Krachkovskiyning soʻzlariga qaraganda, ibn al-Faqix «Kitob axbor ul-buldon»dan tashqari, shoirlar xaqida 5 jildlik kitob ham yozgan. Lekin bu asar bizning zamonimizgacha etib kelmagan.

«Kitob axbor ul-buldon» geografiyaga oid asar sifatida nisbatan birmuncha zaif, lekin siyosiy tarix va madaniy hayotga oid materiallarga boy asar. Ibn al-Faqihning yirik shaharlar Balx, Samarqand haqida keltirilgan maʼlumotlari benihoyat qimmatlidir.

«Kitob axbor ul-buddon»ning ham toʻla nusxasi etib kelmagan. Uning Ali ibn Jaʼfar ash-SHayzoriy tarafidan qilingan qisqa tahriri de Gue tomonidan 1885 yili Leydenda chop etilgan. Mazkur asarning qoʻlyozma nusxasi, aniqrogʻi uning ikkinchi qismi, 1923 yili Mashhad yaʼni Erondagi Imom Rizo masjidi kutubxonasidan topilgan. Ushbu qoʻlyozmada, uning Eron, Oʻrta Osiyo va Oʻzbekistonning iqtisodiy geografiyasiga oid qismida, diqqatga sazovor maʼlumotlar bor.

Abulqosim Ubaydulloh ibn Xurdadbeh (taxm. 820—913 yy.) asli eronlik; oliy martabali mansabdor xonadonga mansub hisoblanadi. Otasi IX asr boshlarida Tabariston hokimi boʻlgan. Daylam viloyatini boʻysundirib, xalifaning eʼtiborini qozongan. Ibn Xurdadbeh Bagʻdodda oʻqigan va keng maʼlumot olgan. U geografiya, meteorologiya, tarix kabi ilmlardan atroflicha xabardor boʻlgan. Farmerning maʼlumotlariga qaraganda, u arab musiqasi tarixidan ham xabardor boʻlgan.⁵

U xalifa Moʻʼtamid (870—892) davrida yuksak davlat lavozimlarida turgan; dastlab nadim, soʻng Eronning shimoli-gʻarbiy tarafida joylashgan Jibal viloyatida sohib barid va-l-xabar yaʼni pochta va razvedka boshligʻi lavozimida turgan. Ibn Xurdadbeh uzoq umr koʻrgan va 915 yil atrofida vafot etgan.

⁵ Саъдуллаев А, Сотликов А. Хоразм Маъмун Академияси. –Т., 2003. - бет

Ibn Xurdadbeh turli fanlar xususan adabiyot, tarix, geografiyaga oid 10 ga yaqin asar bitgan. Ulardan eng muhimi «Kitob masolik ul-mamolik»dir . Uning tarjimasi «Yo'llar va mamlakatlar haqida kitob» bo'lib, 846 yili yozib tamomlangan. Asarning faqat kisqartirilgan tahriri bizning zamonimizgacha etib kelgan va de Gue tarafidan 1889 yili chop qilingan.

Asarda arab xalifaligi qo'l ostidagi mamlakatlar ularga olib boradigan yo'llar, shaharlar va mamlakatlar orasidagi masofa, aholidan undiriladigan soliq va jarimalarning miqdori haqida qisqa, lekin qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Ayniqsa, qadimiy So'g'd shaharlaridan Kushoniya, Samarqand, Ustrushona, SHaxriston shaharlari va ularga olib boradigan yo'llar, Movarounnahr shaharlarida aholi o'rtasida muomalada bo'lgan pul birligi, Nuh ibn Asad va Ahmad ibn Asad davrida So'g'd va Farg'onaning umumiy ahvoli bayon etiladi. Asarda keltirilgan Movarounnahr va Farg'onada IX asrda istiqomat qilgan turkiy xalqlar haqidagi ma'lumotlar benihoyat qimmatlidir.

2. Arab tilida ijod qilgan yirik qomusiy olim Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy (839—923 yy.) Eronning Tabariston viloyatiga qarashli Omul shaxrida tug'ilgan; umrining ko'p qismini Bag'dodda o'tkazgan va o'sha erda vafot etgan. Lekin, xalifalikning ko'pgina shaharlarini aylanib chiqqan, birmuncha vaqg Ray, Basra, Kufa, Suriya va Misrda turgan.Tabariy o'z davrining keng ma'lumotli kishilaridan bo'lib, ilohiyot, hadis, «Tafsir», «Qur'on» oyatlari izohi, musulmon qonunshunosligi hamda tarix kabi ilmlarni chuqur egallagan. Tabariy bu sohalar bo'yicha 10 dan ortiq kitob yozib qoldirgan. Musulmon qonunshunoslari orasida mavjud bo'lgan ixtiloflar bayon etilgan «Kitob ixtilof al-fuqaho» («Faqixlar o'rtasidag ixtiloflar haqida kitob»), «Qur'on» oyatlari sharhiga bag'ishlangan 30 yoki boshqa ma'lumotlarga qaraganda 40 jilddan iborat «Jome' ul-bayon an ta'vil al-Quron «Qur'on so'zlari ma'nosining keng bayoni majmuasi» va nihoyat «Tarix ar-rusul va-l-muluk» yani «Payg'ambarlar va podsholar tarixi» shular jumlasidandir. «Tarix ar-rusul va-l-muluk» umumiy tarix yo'nalishida yozilgan asar . Lekin

mukammalligi va daliliy ma'lumotga boyligi bilan boshqa

asarlardan tamoman ajralib turadi . Asarda olamning «yaratilishi»dan to 912-913 yillarga qadar Arabiston, Kichik Osiyo , Eron va Arab xalifaligi asoratiga tushib qolgan mamlakatlarda , shuningdek , O`rta Osiyo bilan O`zbekistonda bo`lib o`tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar haqida hikoya qilinadi. Voqealar yilma-yil, xronologik tartibda bayon etilgan. Bu, asardan foydalanishni birmuncha qulaylashtirgan, albatta.

Tabariy mazkur asarini yozishda yahudiy va xristianlarning naql va rivoyatlari, Sosoniylar solnomasi «Xvaday namak» («Podshohnoma»), al-Madoiniyning «Axbor ul-xulafo» («Xalifalar haqida xabarlar») kabi asarlaridan keng foydalangan. Lekin olim, ko`p hollarda, ayniqsa asarning qadimiy tarixga bag`ishlangan qismlarida, boshqa manbalardan olingan dalil va ma`lumotlardan mulohazasiz va tekshirmay foydalangan. SHunga qaramay, asarning qadimiy tarixdan bahs yurituvchi qismlari ham ma`lum ilmiy qimmatga ega, chunki bu qismlarda bizgacha etib kelmagan manbalarda mavjud bo`lgan ma`lumotlar, parchalar saqlangan.

Qisqasi «Al-rusul va-l-muluk» musulmon mamlakatlari bo`yicha asosiy manbalardan hisoblanadi. Maskur asar tahrirlari bo`lgan, lekin bizning davrimizgacha uning qisqartirilgan taxriri etib kelgan va gollandiyalik M. YA. de Gue tarafidan 1879 - 1901 yillari 15 jild qilib nashr qilingan .

Tabariyning mazkur asaridan ayrim parchalar bir talay Evropa tillariga tarjima qilingan. Uning to`la frantsuzcha tarjimasi G. Zotenberg tomonidan 1867—1874 yillari Parijda nashr etilgan. Asarning forsiycha, turkiycha hamda eski o`zbek tilidagi tarjimalari ham bo`lib, qo`lyozma nusxalari Sankt-Peterburg va Toshkent kutubxonalarida saqlanmoqda., Asarning qo`lyozma nusxalari Rossiya, Angliya, Turkiya, Eron va Hindiston kutubxonalarida saqlanmokda. V. I. Belyaev tarafidan amalga oshirilgan qisqartirilgan ruscha tarjimasi ham bor .Abulhasan Ali ibn al-Husayn al-Mas`udiy 956 yilda Qohirada vafot etgan X asrning ko`zga ko`ringan geografi va tarixshunos olimlari jumlasidan I. YU Krachkovskiyning ma`lumotlariga<sup>6</sup> qaraganda, u IX asr oxirlarida Bag`dodda zodagon oilasida dunyoga kelgan .

⁶ ¹ Krochkovskiy I. Yu. Arabskaya geograficheskaya literatura. 192- 192betlar.

Manbalarda, xususan as-Saolibiy antologayasida aytilishicha Utbiy bir necha yirik asar yozgan. Lekin, ulardan bittasi — «Tarixi YAmīniy» nomi bilan mashhur boʻlgan tarixiy asargina saqlanib, Tarixi YAmīniy» amir Sabuktakin hamda Sulton Mahmud zamonida Gʻaznaviylar tarkibiga kirgan Afgʻoniston, Xuroson, Xorazm va qisman Movarounnahrning 975-1021 yillardagi ijtimoiy-siyosiy tarixini bayon etadi. Asarda Qoraxoniylarning Movarounnaxrni bosib olishi (992—996 yillari) haqida keltirilgan maʼlumotlar benihoyat qimmatlidir.

«Tarixi YAmīniy» oʻrta asr tarixshunosligiga xos ogʻir uslub (saj) bilan yozilgan. Asarda hukmron sinfnining maqsad va manfaatlari himoya qilinadi, xususan Sulton Mahmud va uning yaqinlari koʻklarga koʻtarib maqtaladi. SHuning bilan birga, olim uzluksiz davom etgan urushlar, zulm, turli-tuman soliq va jarimalar tufayli xonavayron boʻlgan mehnatkash xalqning ogʻir turmushiga ham ayrim oʻrinlarda koʻz tashlab oʻtadi.

Mazkur asarning arabcha matni Dexli (1874 y.), Buluq (1874 y.) va Loxur (1883 y.) shaharlarida chop etilgan. Undan ayrim parchalar frantsuz, nemis va ingliz tillarida chop etilgan. «Tarixi YAmīniy»ning forscha tarjimalari ham bor. Abu SHarif Nosih al-Jorbozaqoniy kalamiga mansub boʻlib, 1856, 1956, 1966 yillari Eronda chop etilgan .

4. Abu Rayhon Beruniy tabiiy va ijtimoiy fanlarning koʻpgina sohalari boʻyicha 150 dan ortiq asar yozib qoldirgan buyuk qomusiy olim. Toʻla ismi: Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy; 973 yil 4 sentabrda Xorazmning qadimiy poytaxti Kot (Fir, Fil, Kos deb ham atalgan) shahrida tugʻilgan. Beruniy ilmga yoshligidan qiziqdi, yirik olim Abu Nasr Iroqdan matematika va falakiyot (astronomiya), Abu Sahl Iso al-Masixiydan tibb hamda falsafa ilmlarining sirlarini oʻrgandi. Abu Rayhon Beruniy 17 yoshligidanoq Kotda mustaqil astronomik kuzatishlar olib bordi. Oʻshanda u Kotning geografik kengligini oʻlchadi. 994 yili, 21 yoshligida, ekliptika tekisligini ekvatorga qanchalik qiyaligini oʻlchab berdi; dunyoda birichi boʻlib globusni ixtiro qildi.

995 yili Beruniyning hayotida ogʻir kunlar boshlandi. Oʻsha yili Somoniylarga qarshi fitna koʻtargan Simjuriyning ukasi Abu Abulqosim Jurjonni bosib oldi .

Natijada Somoniylar bilan ittifoqdosh bo'lgan Kot hokimi saroyida xizmat qilgan Beruniyning hayoti xavf ostida qoldi. 995 yili Beruniy Rayga qochib ketdi. 997 yili o'z vataniga qaytib keldi va ilm bilan mashg'ul bo'ldi. SHu yili Urganch hukmdori Abulxasan Ali ibn Ma'mun Janubiy Xorazm va uning poytaxti Kotni bosib oldi. 1017 yili Xorazm Mahmud G'aznaviy qo'shinlari tarafidan bosib olingandan so'ng Beruniy majburiy tarzda G'aznaga olib ketildi va umrining oxirigacha qolib 1048 yil 11 dekabrgacha istiqomat qildi. Abu Rayxon Beruniy tarixga oid bir necha qimmatli asar yozgan.

Abu Rayhon Beruniyning eng muhim va qimmatli arab tilida yozilgan asari «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asaridir. Asarning arabcha nomi «Al osor al boqiya an al qurun al-holiya» bo'lib, u Yevropada Xronologiya, o'zbek sharqshunosligida «Osor al boqiya» nomi bilan mashhur.⁷

Beruniy bu asarini Jurjonda muhojirlik davrida yoza boshlagan va 1000 yil yozib tugallagan.

«Osor al boqiya» Beruniyning deyarli boshqa asarlari kabi arab tilida yozilgan. Bu asarni birinchi marta Yevropa olimlariga tanishtirgan olim mashhur nemis sharqshunos va beruniyshunosi Eduard Zaxau(1845-1930) bo'ldi. U 1876-1878 yillarda Leypsigda asarning arabcha nusxasini birinchi marta nashr etdi. Ingliz tilidagi tarjimasini 1879 yil chop ettirgan.

Zaxauning arabcha nusxasi asosida 1943 yil tehronda asarning fors tilidagi tarjimasi Akbar Dono Sitisht Sayrafiy tomonidan nashr etildi.

«Osor al boqiya»ni 1957 yilda aarbshunos olim M.A. Sal'ye birinchi marta rus tiliga tarjima qildi.

«Osor al boqiya»da Beruniy o'ziga ma'lum bo'lgan xalqlarning yunonlar, rumliklar, eroniylar, so'g'diylar, xorazmliklar, xarroniylar(yulduzlarga topinuvchilar), qibtiylar, xristianlar, yahudiylar, islomgacha bo'lgan arablar va musulmonlarning yil hisoblari, hayitlari va mashhur kunlarini mufassal tasvirlab beradi. Asarda astranomiya va

⁷ O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi . T. –2005y.

matematikaning ko'p masalalari yoritib berilgan. Beruniy musulmon olimlari ichida birinchi marta yahudiylar kalendari haqida ma'lumotlar beradi. «Osor al boqiya» chulg'ab olgan masalalar bular bilan chegaralanib qolmaydi.⁸ Unda juda ko'p tarixiy voqealar, turli millat va dinlarga oid muhim ma'lumotlar, payg'ambarlar va soxta payg'ambarlar, podshohlar, mashhur tarixiy shaxslar va olimlar haqida ham ma'lumotlar beradi. Asarning O'rta Osiyo xalqlari, ularning madaniyati va tarixiga doir ma'lumotlari juda muhim ahamiyatga egadir. Asarga bir qancha she'riy parchalar ham kiritilgan, so'g'd va xorazm tillaridan parchalar ham keltirilgan. Afsuski, til namunalari bo'lgan bunday yodgorliklar keyingi qo'lyozmalarda buzib ko'chirilgan, shuning uchun uning asl shaklini tiklash imkoniyati yo'q.

Beruniy bu asarni nima uchun yozganligi haqida shunday deydi: «Arablardan biri mendan turli xalqlar haqidagi tarixlar, ularning boshlanishi va shahobchalari, ya'ni oylar va yillari ustida u tarix egalaning ixtiloflari va bu ixtilof sabablari, mashhur bayramlar, vaqtlar va yumushlar uchun belgilangan kunlar, millatlarning ba'zisi amal qilib, ba'zisi amal qilmaydigan boshqa marosimlar haqida so'radi va meni imkon boricha ularni juda ravshan bayon etib, o'quvchi fahmlaydigan turli kitoblarni axtarish va u kitob egalarini surishtirishga ehtiyoj qolmaydigan bir asar yozishga da'vat etdi.»

Buyuk olim o'z asarini yozishga kirishar ekan, bu ishning oson emasligini, qadimgi xalqlar, ularning yil hisoblari haqidagi rivoyatlar nihoyatda chalkashib ketgani, yolg'on afsonalar va asossiz ma'lumotlarga to'lib-toshib yotganini ta'kidlaydi. Bunday yolg'on-yashiqlardan holi bo'lish uchun «u rivoyatlarning davrimizga eng yaqin va eng mashhurini birin-ketin olib borishimiz lozim, ularni o'z arboblardan qabul qilib, tuzatish mumkin bo'lganini tuzatamiz, boshqalarini o'z holicha qoldiramiz. Shunda biz keltirgan rivoyatlar haqiqatni

⁸ **Abu Rayhan Beruniy.** Tanlangan asarlar T.- 1968 y.

qidiruvchi va hikmatni sezuvchining ulardan boshqa rivoyatlar ustida ish yurgizishga yordamchi va bizga muyassar bo'lmagan narsalarga erishishi uchun yo'lovchi bo'ladi » - deydi.

« Osor al boqiya » podshohlar va mashhur shaxslarning tarixinigina yoritib beruvchi asarlardangina emas, balki xalqlarning madaniyati tarixa, ularning urf-odat va e'tiqodlari tarixi aks ettirilgan tarixiy etnografik asardir.

Beruniy o'z asarida turli xalqlardagi yil hisoblari, ularning urf-odatlari ustidato'xtalar ekan, O'rta Osiyo va Eron xalqlarining madaniyatini yuqori ko'taradi. Islomgacha bo'lgan arablarni madaniyatsiz deb ataydi, arab bosqinchisi Qutayba ibn Muslimni Xorazm madaniyatini oyoq osti qilgani uchun qattiq qoralab, «Qutayba Xorazm tilini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o'rgangan va bilimni boshqalarga o'rgatadigan kishilarni xalok etib, butkul yo'q qilib yuborganedi» - deydi.

« Osor al boqiya »da har xil davrlarda hukm surgan turli podshohliklar va sulolalarning juda ko'p jadvallaririkiritilgan. Makedoniyalik batlimuslar, xristian, qadimiy eron, sosoniylar sulolasi podshohlari, arab xalifalari kabi. Mazkur jadvallar shuhday aniq manbalardan olinganki, podshohlarning hukmronlik qilgan davrlari deyarli to'g'ri ko'rsatilib, ular boshqa tarixiy kitoblar bilan solishtirilib, to'la isbot etilgan.

Beruniy diniy e'tiqodlarga befarq qaraydi, boshqa dindagilarga nisdatan beg'araz munosabatda bo'ladi. Lekin bundan u materialist bo'lgan degan xulosaga kelmaslik kerak. U xudoga va payg'ambarlarga ishongan, ularga bag'ishlab madhlar yozgan. Bu sharqning o'sha vaqtdagihama olimlari asarlariga xos traditsiya bo'lib, zamon shunday madhiyalarni kuylashni talab qilar edi. Shuning uchun Beruniy muhit bilan kelishishga va o'z homiylarining xohishlari bilan hisoblashishga majbur edi.

Xulosa.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, IX - XII asrga oid arab manbalari O'rta Osiyo tarixini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Bu davr manbalarida O'rta Osiyo hududida o'rnatilgan arablar hukmronligi, bu yerda yashagan xalqlar hayoti ularning mashg'uloti, arablar tomonidan bo'y sundirilgan xalqlar tarixi jumladan arab tilini o'z ona tiliday bilib olgan, o'rta osiyo xalqlarini islomgacha va undan keyingi tarixini har tomonlama sinchiklab o'rganib chiqqan qomusiy olim va tarixchi Beruniyning " Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar " asari so'zimizning isbotidir. Bu asarda Beruniy o'ziga ma'lum bo'gan xalqlarning yunonlar, rumliklar, eroniylar, sug'diylar, xorazimliklar hamda musulmonlarning yil hisoblari hayitlari va mashhur kunlari mufassal tasvirlab berilgan. Demak, hozirgi kunda bu asarlarning barchasi O'rta Osiyo va O'zbekistonning IX –XII asrlar tarixini o'rganishda muhim va qimmatli manba bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. I.A.Karimov *Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q*. T.: Sharq, 1998 y.
2. I.A.Karimov *O'zbekiston XXI asrga intilmoqda*. T.: 1996 y.
3. I.A.Karimov *Bizdan ozod va obod vatan qolsin*.T.: II tom. 1996 yil.
4. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.8 tom. T. –2005y.
5. Ahmedov B. A. *O'zbekiston tarixi manbalari*.T.:2001 y.
6. Ahmedov B. A. *O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari*. T.:1991 y.
7. Abu Rayhan Beruniy. Tanlangan asarlar T.- 1968 y.
8. Sagdullayev A., Sotliqov A. Xorazm Ma'mun Akademiyasi. Urganch. 2003 y.
9. O'zbekiston tarixi.T.: 2003 y.
10. **Qalamov A.** *Qadimiy obidalar*. T.: Adabiyot va san'at nashryoti. 1972 y.